ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ
JOQARÍ BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRLIGI

ÁJINIYAZ ATÍNDAĠÍ NÓKIS
MÁMLEKETLIK PEDAGOGIKALÍQ INSTITUTÍ

PEDAGOGIKA KAFEDRASÍ

«QARAQALPAQSTANDA PEDAGOGIKA TARIYXI IZERTLEWI: BÚGINI HÁM PERSPEKTIVASI»

ATAMASINDAĠÍ XALIQ-ARALIQ ILIMIY-ÁMELIY KONFENCIYA MATERIALLARÍ

«QORAQALPOG‘ISTONDA PEDAGOGIKA TARIXI TADQIQOTI: BUGUNI VA ISTIQBOLI» MAVZUSIDA XALQARO MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

Nókis - 2024

Yerejepov.M	**Huqiqiy tárbiyaniń jaslar tárbiyasinda róli.....**	**362**
Jalimbetov.J.G	**Kórkem ádebiyatlar hám olardan tariyx sabaqlarinda paydalaniw usillari……**	**366**
Orazbaeva.G.U	**Tálim processiniń sapali boliwina xizmet etiwshi ayirim máseleler.....**	**370**
Sabirova.M	**Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari.....**	**373**
Пазылова.М.Е	**Мутафаккирларимиз илмий фаолиятида ёшларни илм-маърифат эгаллашга ундаш масалалари.....**	**376**
Gaipov.D.J	**Shaxsga yónáltirilgan innovacion tálim……**	**381**
Kenesbayeva E.J	**O‘quvchilarning intellektual sohasini rivojlantirishda o‘qitish texnologiyalarining ahamiyati……**	**384**
Kurbanbaeva.O	**Sanlı ekonomikanı rawajlandırıw sharayatında bolajaq pedagogtıń pedagogikalıq kompetenligin asırıwdıń áhmiyeti.....**	**389**
Gaipov.D.J	**Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati……..**	**393**
Umirbekova.N	**Orta arnawlı bilimlendiriw mekemelerinde oqıwshılardıń tártip qaǵiydasın saqlaw texnologiyasın rawajlandırıw.....**	**396**
Пазылова.М.Е **Ярматов.А.Н**	**“Ватан таянчи” ҳаракати отряд аъзоларининг салоҳиятини намоён этиш шакллари (юқори синф ўқувчилари мисолида).....**	**399**

«Paradokslar» darsi óquvchilarning faolliklari va qiziqishlarini oshirish maqsadida órganilayotgan mavzuni har turli «paradokslarga» boǵlab bayon qilish hamda tegishli tahlillar ótkazish asosida tóǵri xulosalarni aniqlash darsi. Seminar darsi yangi dars mavzusiga doir savollar bóyicha óquvchilarga oldindan berilgan topshiriqlarni bajarish natijalari tóǵrisida málumotlarni tinglash orqali guruhdagi barcha óquvchilar darsni ózlashtirishlari va bilimlarini mustahkamlashni táminlash darsi. Ekskursiya darsi óquvchilarni turli ob‟ektlar: muzey, ziyoratgoh, korxona, ustaxona, tabiat, ilmiy muassasa va boshqalar bilan tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan boǵlash va kasbga yónaltirish ishlarini amalga oshirib borish táminlanadi.

Adabiyotlar róyxati:

1. Tolipov O. Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari”. T. Fan. 2006.
2. Zagvyazinskiy V.I. Órganish nazariyasi: zamonaviy talqin. - M: Akademiya, 2001. - 192 b.
3. Pólat E.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. Óqituvchilar uchun qóllanma - M, 1997. - 258 b.
4. Slastenin V. A. Pedagogika. Innovatsion faoliyat. M. Master nashriyoti - 2005. - 410 b.

O‘QUVCHILARNING INTELLEKTUAL SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

E.J.Kenesbayeva – Ajiniyoz nomidagi NukusDPI tayanch doktoranti, Nukus shahri

O‘quvchilar intellektual sohalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari ushbu maqsadga xizmat qiladigan didaktik materiallar, usullar va metodlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shunga ko‘ra, o‘quvchilarning intellektual sohalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan modulli o‘qitish texnologiyalari pedagogik-psixologik yondashuvlar, nazariyalarga tayanib o‘quvchilarning

intellektual sohalarini rivojlantirishni shakllari, metodlari, yo‘llari, usullari, vositalarini aniqlashga xizmat qiladi. Shuning uchun modulli o‘qitish texnologiyalari o‘quvchilar intellektual sohalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik modelini o‘zida ifodalaydi. Modulli o‘qitish texnologiyalar o‘quvchilar intellektual sohalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning asosiy yo‘nalishlari va xarakterini belgilab beradi. O‘qituvchi o‘quvchi orasidagi o‘zaro munosabatlar, dialog va hamkorlik muhitini vujudga keltiradi. Bu dialog va savol-javob yordamida o‘quvchilarni intellektual harakatlarini jadallashtirish imkonini beradi. Natijada sinf jamoasi orasida ijodiy muhit qaror topadi.

O‘quvchilar intellektual sohalarini rivojlantirishda rolliy o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Bunday o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar orasida rollarni taqsimlash, ularning o‘quv axborotlarni o‘zlashtirishlari va qayta ishlashlari uchun qulay sharoit yaratish, muayyan rolga xos bo‘lgan materiallarni tayyorlashga oid pedagogik harakatlar amalga oshiriladi. Rolli o‘yinlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar ssenariy doirasida harakat qiladilar, shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, rolliy o‘yinlardan ko‘ra ishchan o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar ko‘proq intellektual faoliyat ko‘rsatadilar. Rolli va ishchan o‘yinlar orasida o‘quvchilar oldiga muammolar qo‘yiladi.

Rolli o‘yinlarni tashkil etish uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchining intellektual sohasi qay darajada rivojlanganligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi lozim. O‘yinlar jarayonida o‘quvchilarning faolligi, mustaqilligi, hozirjavobligi, muammolarga echim topishi, unga kreativ yondasha olishi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar oldiga qo‘yilayotgan topshiriqlar ularning intellektual rivojlanganlik darajalariga mos kelishi lozim. Rolli o‘yinlar o‘quvchilarga mustaqil bilim olish, intellektual jihatlan rivojlanish motivlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quchchilar intellektual sohalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan rolli o‘yinlar quyidagi tartibda tashkil etiladi: fan o‘qituvchisi o‘yinning asosiy maqsadini aniqlaydi, kutilayotgan natijalarni aniq tasavvur qilgan holda bayon etadi va o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi, shundan keyingina o‘quvchilarga o‘yinning asosiy maqsadlari va vazifalari tushuntiradi. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni

taqsimlaydi va o‘quvchilar rollarini ijro etishga kirishadilar, rollar bilan band qilinmagan o‘quvchilar esa ushbu jarayonda kuzatuvchi sifatida ishtirok etadilar, o‘z navbatida ular o‘z fikrlarini bayon qilib, o‘yin haqidagi yakuniy xulosalarini chiqaradilar. O‘yin ssenariysi esa o‘quvchilarni intellektual sohalarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularni ijtimoiylashtirishga ham xizmat qilishi lozim.

Bunday o‘yinlar jarayonida hayotiy muammolarga qiziqish, shaxslararo muloqot, hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish, bir birini qo‘llab quvvatlash, muammolarga birgalikda echim topish ko‘nikmalari rivojlanadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, o‘quvchilar intellektual sohalarini rivojlantirishda ishchan o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Bunday o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar kasbiy faoliyat motivlarini egallaydilar, muayyan kasbning ijtimoiy asoslari bilan tanishadilar. Natijada o‘quvchilarda ijodiy faoliyat tajribasi, mehnat jarayonlarini modellashtirish ko‘nikmalari tarkib topadi.

Ishchan o‘yinlar muayyan vaziyatni ifodalovchi imitatsion model sifatida o‘quvchilarni ijtimoiy hamkorlikka va shaxslararo munosabatlarga tayyorlashga xizmat qiladi. Bunday o‘yinlar yordamida o‘quvchilar istiqbolda amalga oshirishlari mumkin bo‘lgan ijtimoiy faoliyatga oid xatti-harakatlar, munosabatlar, me’yorlar, shart-sharoitlar bilan tanishadilar. Ularda kasbiy tafakkur elementlari hosil bo‘ladi. Ishchan o‘yinlar yordamida o‘quvchilar o‘zlari qabul qilgan qarorlarni imitatsiyalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar, amalga oshirilgan faoliyat rejasini tuzish, o‘z nuqtai nazarlarini bayon qilishga erishadilar. Ishchan o‘yinlar davomida o‘quvchilar jamoaviy faoliyat, mikrosotsiumda harakatlanish, o‘z fikrini himoya qilish kabi ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladilar. O‘quvchilar turli rollarga kirishish jarayonida asosli qarorlar qabul qilish, ziddiyatlarni bartaraf etish tajribasini o‘zlashtiradilar. Ishchan o‘yinlar jarayonida O‘quvchilar intellektual sohalarini rivojlantirishga ko‘maklashadigan didaktik vaziyatlar vujudga keladi.

Pedagoglar va psixologlar o‘quvchilar alohida qiziqish bilan yondashgan holda o‘quv materiallarini o‘zlashtirganda ularning intellektual sohalari rivojlanadi va mazkur o‘quv materiallari ularda o‘quv jarayoniga nisbatan bilish qiziqishlarining vujudga kelishiga turtki beradi deb hisoblaydilar. O‘quvchilarning

intellektual sohalarini rivojlantirishda ishchan o‘yinlarni quyidagi turlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarni jismoniy hamda intellektual jihatdan rivojlantirishga ko‘maklashadigan o‘yinlar va treninglar, o‘quvchilarni faollikka undovchi o‘yinlar, bunday o‘yinlar sirasiga bahs-munozaraga chorlovchi o‘yinlar, savol-javobga undovchi o‘yinlar, emotsional ruhdagi o‘yinlar;

- intellektual-ijodiy xarakterdagi o‘yinlar. Ular: qiziqarli buyumlar ishtirokida o‘ynaladigan o‘yinlar, syujetli-intellektual o‘yinlar, didaktik o‘yinlar, konstruksiyalash bilan bog‘liq o‘yinlar, ijodiy mehnat faoliyatini ifodalovchi o‘yinlar, texnik ijodkorlikka undovchi o‘yinlar, kompyuter o‘yinlar;

- o‘quvchilarni ijtimoiy munosabatlarga kirishga undovchi o‘yinlar: ijodiy, syujetli-rolli o‘yinlar, ishchan o‘yinlar;

- o‘quvchilarni komleks rivojlantiruvchi o‘yinlar: ular sirasiga jamoaviy-ijodiy o‘yinlar kiradi.

Kommunikativ o‘yinlar o‘quvchilarni o‘zaro dialog va hamkorlikka undashga xizmat qiladi. Mazkur o‘yinlar yordamida o‘quvchilarda shaxslararo munosabat tajribasi shakllanadi.

Muammoli-dialog texnologiyasi yordamida o‘quvchilarning intelleklual sohalari jadal rivojlanadi. Mazkur texnologiya Ye.L.Melnikova [1] tomonidan nazariy jihatdan asoslangan. Ushbu texnologiyani qo‘llash natijasida o‘quvchilar muammoli topshiriqlarni bajarish jarayoniga jalb etiladilar. Ular o‘zlashtirgan bilimlarni yangi vaziyatlarda ijodiy qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Dialog vaziyatlarida o‘quvchilar yangi bilimlarini amaliy tajribalarida ijodiy qo‘llashga muvaffaq bo‘ladilar. Ularda kreativlik, atrof-muhitga nisbatan tanqidiy munosabat rivojlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga muammoli savollar bilan murojaat qiladi, o‘quvchilar esa chuqur o‘ylagan holda ushbu savollarga javoblar qaytaradilar. Mazkur vaziyatda kichik tadqiqotlar o‘tkazishga muvaffaq bo‘ladilar. Yangi bilimlarni o‘zlashtirish bosqichida o‘quvchilar farazlarni ilgari suradilar, muammolarga echim topish maqsadida izlanishlarni amalga oshiradilar. Natijada o‘quvchilarda kichik tadqiqotlar o‘tkazish, izlanishlar amalga oshirish,

muammolarga echim topish motivlari shakllanadi. Yangi axborotlarni o‘zlashtirishga ehtiyoj va qiziqishlar o‘quvchilarda bilish motivlarining faollashuvini ta’minlaydi. O‘quvchilarning yangi axborotlarni o‘zlashtirishlari, ularning intellektual sohalarini rivojlantirib dialogga kirishish motivlarini faollashtiradi. Muammoli-dialog texnologiyasi yordamida o‘quvchilarning intellektaul rivojlanishlari uchun qulay bo‘lgan muvaffaqiyat vaziyatlari vujudga keltiriladi.

O‘quvchilarning intellektual sohalarini rivojlantirishga ko‘maklashadigan texnologiyalar sirasiga **o‘qish va tinglash texnologiyasi**ni ham kiritish mumkin. Ushbu texnologiya dastlab O.V.Chindilova [2] tomonida ilmiy pedagogik muomalaga kiritilib nazariy jihatdan asoslangan. O‘quvchilarga matnlar taqdim etilib uni tinglash, tushunish va mazmun mohiyatini idrok etish talab qilinadi. Matnlar badiiy, ilmiy ommabop va ilmiy matnlardan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan 5-6-sinf o‘quvchilariga badiiy matnlar va badiiy axborotli matnlar, 7-8-sinf o‘quvchilariga ilmiy ommabop matnlar, 9-10-11-sinf o‘quvchilariga turli mavzudagi ilmiy matnlarni taqdim etish mumkin. Matnlar o‘quvchilarning badiiy estetik saviyasi hamda ilmiy dunyoqarashiga mos bo‘lishi, dasturdagi mavzular bilan aloqadorligi ta’minlanishi lozim. Ularda hayotiy voqealar hamda o‘quvchilarning o‘zlashtiradigan bilimlarga mos keladigan ilmiy axborotlar ifodalanishi talab qilinadi. O‘qituvchi matnni tinglab tushunishning har bir bosqichida alohida usul va metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiq. Matnni o‘qib tushunishning har bir bosqichida alohida usullarni qo‘llash talab qilinadi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, shaxslararo munosabat va muloqotga kirishish ko‘nikmalarining rivojlanishiga ko‘maklashadi.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. N.X.Avliyakulov, N.N.Musaeva “Pedagogik texnologiya” - “Tafakkur Bo‘stoni”, Toshkent -2012.
2. Мельникова.Е.Л. Проблемно-диалогическое обучение: понятие, технология, методика [Монография]. – М.: Баласс, 2015.